

## NEVROLOGIYA

**Xudoyberdiyeva Gulnoza Abdurasul qizi**

*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti*

*RINvaBTIATM*

**Annostatsiya:** *Ushbu maqolada nerv sistemasining tuzulishini o'rganuvchi fan nevrologiya, uning turlari, kasalliklari va nevrapatolog haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *A.Vezaliy, nerv sistemasi, filogeneza, ontogenez, Gistologiya, N. Ye. Vvedenskiy, Ch. Sherrinton, . I. P. Pavlov, adaptatsion-trofik.*

Nevrologiya odam va hayvonlar nerv sistemasining tuzilishi hamda norma va patologik holatlardagi funksiyalari, uning filogeneza va ontogenez qonuniyatlari to'g'risidagi tibbiy-biologik fan. Nevrologiyaning bo'limlari — nerv sistemasining anatomiyasi, gistologiyasi, embriologiyasi, neyrofiziologiyasi, patofiziologiya, shuningdek, nevropatologiya, bolalar nevropatologiyasi, nevrologiyana va boshqa qadimgi dunyo tibbiyoti neyromorfologiyadan elementar ma'lumotlarga ega bo'lgan. 16-asrda A.Vezaliy nerv sistemasini o'rganishda morfofunktsional yo'nalishni boshlab berdi. 19-asrda nerv sistemasini mikroskopik o'rganishga asos solinadi, bu esa neyronni ta'riflashga imkon berdi. Gistologiya, tasviriy anatomiya bilan birga neyrofiziologiya ham rivojlanib bordi; hayvonlar miyasining ayrim qismlarini ajratib olib o'rganishga kirishildi. Bosh va orqa miyada harakat va sezgi funksiyalarini belgilovchi maxsus markazlar borligi aniqlandi. 19-asrning 2-yarmida bosh miya vaskulyarizatsiyasi, nerv sistemasining filogenezi va ontogenezini o'rganishda bir-muncha muvaffaqiyatlarga erishildi. 19—20-asrlarda I. M. Sechenov, N. Ye. Vvedenskiy, Ch. Sherrintonlar o'tkazgan fiziologik tadqiqotlar chet elda nevrologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti, miyaning tuzilishi va funksiyasining shakllanishida evolyusion-genetik qonuniyatning ochilishi va boshqa 20-asrda nevrologiyaning muhim yutuqlaridan bo'ldi.

Miyachaning adaptatsion-trofik funksiyasi haqidagi konsepsiyaning takomillashtirilishi, simpatik nerv sistemasining muskul qisqarishiga ta'sir etishini tajribada aniqlanishi, interoretsepsiya masalalarining, bosh miya po'stlog'i bilan ichki a'zolar o'zaro munosabatining o'rganilishi va boshqa nevrologiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Nevrologik kasalliklarni kasalliklarni davolaydigan shifokor esa nevropatolog deb nomlanadi. Nevrologiya to'g'ridan to'g'ri neyrojarrohlik, pediatriya va psixiatriya bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Nevrolog oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lishi lozim va bu yo'nalishda amaliy tajribaga ega bo'lishi kerak. Nevropatolog avvalam bora asab kasalliklariga tashxis qo'yadi so'ng daolash ishlarini boshlaydi. Asab tizimini buzulishlari o'ziga hos bo'lmagan ko'pgina simptomlarga ega. Shuning uchun ko'pincha asab kasalliklariga chalingan insonlarni nevropatolog huzuriga terapevt shifokori yuboradi. Nevropatologik kasalliklar bosh yoki orqa miyani qattiq lat yeyishida va shikastlanishlarida ko'zga tashlanadi va shuningdek bo'g'im tog'ayini shikastlanishi lekin shunday tug'ma xarakterdagi kasalliklar borki bularga Turetto sindromi, leykodistrofiya, Kruzon sindromi, Dendi-Volker sindromi, Vilson-Konovalova kasalligi va neyrofibromatozlar kiradi. Qanday hollarda nevrolog konsultatsiyasi lozim bo'ladi?

Ko'pincha insonlarda bel va bo'yin qismida og'riqlar paydo bo'ladi. Biz bu og'riqlarni harchoqga yo'yamiz. Agar bu og'riqlar yana qaytarilsa mutaxassis ko'rigiga boorish lozim. Bel va bo'yindagi og'riqlar osteoxondroz, skalioz va hatto churra kabi kasalliklarning belgisi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari tanadagi og'riqlar nerv tolalarining yallig'lanishi yani nevrologiya boshlanishi haqida ma'lumot berishi mumkin. Tez tez uchraydigan xar hil xarakterli bosh og'riqlari mutaxassisni ko'rigiga kelish uchun yetarlicha sabab bo'ladi. Uyqusizlik, mushaklardagi og'riqlar, ko'rish va so'zlashishda nuqsonlar paydo bo'lishi, boshqarib bo'lmaydigan tana xarakatlari, hotiraning buzulishi e'tibordan chetda qolishi mumkin emas. Ko'rik vaqtida mutaxassis birinchi navbatda bemorning shikoyatlarini o'rganib chiqishi va tashqi ko'rik o'tqazishi, reflekslarni tekshirishi va undan keyingina maxsus testlani o'tqazishi xarakter, so'zlashuv, ko'rish, koordinatsiya olish funksiyalarini baholashi lozim. Faqatgina shundan keyin shifokor qo'shimcha tahlillar va ko'riklar o'tkazish lozimligini hal qiladi. Xar bir bolakayni hayotidagi muhim shifokorlardan biri bu bolalar nevropatologi. Bu kasb sohibi bolalarni tug'ilganidan to 15 yoshiga qadar davolaydi. Bolalar nevropatologi ikki turga bo'linadi: Birinchisi tug'ilganidan 7 yoshgacha qaraydigan nevropatolog. Ikkinchisi 7 yoshdan to 15 yoshgacha qaraydigan nevropatolog.

Nevrologiya bu markaziy asab sistemasi kasalliklari bilan shug'ullanadigan, ularni kelib chiqish sabablarini o'rganadigan va ularni davolashga o'z e'tiborini qaratgan tibbiyotning bir qismidir. Agar statistic ma'lumotlarga qaraydiga bo'lsak xar bir 5 go'dakda markaziy asab tizimini buzulishlari uchraydi. Shu buzulushlar bilan nevropatolog shug'ullanadi.

Davolanish bolani hayot tarzini pasayishiga olib keladigan asoratlarni oldini olish uchun juda muhim. Bolalar nevropatologi yuqori malakali mutaxassis bo'lishi bilan birgalikda tashxis qo'yishni uddalay bilishi lozim. Shuni ta'kidlash lozimki bolalar asab tizimi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi va o'sish jarayonida shakllanib boradi. Shuning uchun bu tizim mutaxassis ko'rigiga muxtoj. Agar kichik bo'lsa ham bironta kasallik ko'zdan qochirilsa bu kelajakda bolakayni nogiron bo'lib qolishiga hattoki o'limiga olib kelishi mumkin. Bolalar nevropatologi periferik asab tizimini va ularni funksional buzulishlarini davolash bilan shug'ullanadi. Nevrolog ko'rigini har 3 oyda 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda, 1 yoshdan yuqori bo'lganlar yilda 1 marotaba o'tishlari lozim. 1 yoshgacha shifokor bolani haddan ziyod ta'sirchanligiga, uyqusizligiga, bosh miya travmalariga ahamiyat qaratishi kerak. Bolalar nevropatologi bosh miyaga alohida e'tibor qaratishi lozim. Uning vazifasi bosh miyasini rivojlanishini, qon aylanishidagi buzilishlarini tekshirishi lozim. Ota-onalar agar o'z farzandlarida quidagi belgilarni: tez-tez takrorlanadigan bosh og'riqlari, mushaklarni tortishishi, duduqlanish va so'zlashishni jarayonini buzulishi, 5 yoshdagi enurez holati, hushsizlik holatlari ko'rganida darhol nevropatolog ko'rigiga bolalarini olib borishlari zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Fox, S. I. (2002). Human physiology. McGraw-Hill.
2. Ganong, W. F. (1995). Review of medical physiology. Mcgraw-hill.
3. Ivanova G. E. reabilitatsiya jarayonini tashkil etish / G. E. Ivanova / / Kreml tibbiyoti. Klinik Herald. 2012. 4-son. P. 8-10.
4. Larina Od, Shevtsova E. E. Moskvaning ixtisoslashgan neurorehabilitation xizmatining yagona reabilitatsiya maydonini yaratish sharti sifatida mutaxassislarning poliprofessional o'zaro munosabatlar tizimi / / maxsus ta'lim. 2014. № 4. P. 24-39.
5. Limankin O. V. psixiatriya muassasalari amaliyotida reabilitatsiya texnologiyalarini joriy etishning dolzarb muammolari / / ijtimoiy va klinik psixiatriya. 2012. T. 22, № 3. P. 99-106.
6. Limankin O. V. psixiatriya yordamining biopsikososyal modelida reabilitatsiya va psixoterapiya / / psixiatriya va narkologiyaning Sibir axborotnomasi. 2012. №2. S. 54-57.